

XALQARO DAVLATLAR TAJRIBASIDA SUN'YI INTELLEKT IJODINING
HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОЗДАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО
ИНТЕЛЛЕКТА НА ОПЫТЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

LEGAL REGULATION OF CREATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE
EXPERIENCE OF INTERNATIONAL COUNTRIES

Xabibullayeva Maftuna Ruhizod qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Patentshunoslik yo 'nalishi 4-kurs talabasi

E-mail: xabibullayevam18@gmail.com

Abdixakimov Farhod Zafar o'g'li

Ilmiy rahbar: Huquqiy fanlar kafedrası stajor - o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ijodiy faoliyat natijasida yuzaga kelayotgan yangi huquqiy munosabatlar tahlil qilinadi. Xususan, sun'iy intellekt orqali yaratilgan ijod namunalarining huquqiy maqomi, ularning mualliflik huquqi tizimidagi o'rni hamda amaldagi milliy va xalqaro qonunchilik doirasida tartibga solinish masalalari keng qamrovda o'rganiladi.*

Maqolada sun'iy intellekt yordamida yaratilgan asarlarni inson ijodiy ishtiroki mavjud bo'lgan holatlar va to'liq avtomatlashtirilgan ijod mahsulotlari sifatida tasniflash orqali ularning huquqiy baholanishidagi farqlar yoritiladi. Xalqaro tajriba, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Germaniya va Yevropa Ittifoqi huquqiy yondashuvlari tahlil qilinib, sun'iy intellektni muallif sifatida tan olish masalasiga nisbatan mavjud qarashlar solishtiriladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tomonidan mustaqil yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi masalasidagi huquqiy bo'shliqlar va bahsli jihatlar ochib beriladi.

Maqolada sun'iy intellekt orqali yaratilgan ijod namunalarini huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, mualliflik huquqi, ijodiy faoliyat, huquqiy maqom, intellektual mulk, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются новые правовые отношения, формирующиеся в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта в сфере творческой деятельности. В частности, всесторонне исследуется правовой статус произведений, созданных с использованием искусственного интеллекта, их место в системе авторского права, а также особенности их правового регулирования в рамках действующего национального и международного законодательства.*

В статье проводится классификация произведений, созданных с использованием искусственного интеллекта, на результаты, созданные при наличии творческого участия человека, и произведения, созданные в полностью автоматизированном режиме, что позволяет выявить различия в их правовой оценке. На основе анализа международного опыта, включая правовые подходы Соединённых Штатов Америки, Великобритании и Европейского союза, сопоставляются существующие взгляды на проблему признания искусственного интеллекта в качестве автора. Одновременно раскрываются правовые пробелы и дискуссионные аспекты, связанные с охраной авторским правом произведений, самостоятельно созданных искусственным интеллектом.

В статье разрабатываются научно обоснованные предложения, направленные на совершенствование правового регулирования произведений, созданных с использованием искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, авторское право, творческая деятельность, правовой статус, интеллектуальная собственность, цифровые технологии.

Abstract: *This scientific article analyzes the new legal relations emerging in the context of the rapid development of artificial intelligence technologies in the field of creative activity. In particular, the legal status of creative works generated using artificial intelligence, their place within the copyright system, and the specifics of their regulation under existing national and international legal frameworks are comprehensively examined.*

The article classifies works generated using artificial intelligence into those created with human creative participation and those produced through fully automated processes, thereby highlighting differences in their legal assessment. Through an analysis of international experience, including the legal approaches of the United States, the United Kingdom, and the European Union, the paper compares existing perspectives on the recognition of artificial intelligence as an author. At the same time, legal gaps and controversial issues related to the copyright protection of works independently generated by artificial intelligence are identified.

The article proposes scientifically grounded recommendations aimed at improving the legal regulation of works generated using artificial intelligence.

Keywords: *artificial intelligence, copyright law, creative activity, legal status, intellectual property, digital technologies.*

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot va texnika sohalarida, balki ijodiy faoliyatda ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda sun'iy intellekt algoritmlari yordamida she'rlar, ilmiy matnlar, musiqa asarlari, grafik dizaynlar va hatto audiovizual mahsulotlar yaratilmoqda. Ushbu holat esa mualliflik huquqi institutining an'anaviy tushunchalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Chunki amaldagi huquqiy tizimlar asosan inson ijodi konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi noaniq qolmoqda. Endi esa muallif kim, mualliflik huquqi, sun'iy intellekt orqali yaratilgan ijodiy asarlarning huquqiy maqomini ko'rib chiqamiz.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunida keltirib o'tilganki, mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmatini, shuningdek ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Muallif - ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs¹. Shu sababli, ijodiy natija insonning ijodiy mehnati bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Bu esa sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar uchun murakkab huquqiy vaziyat yaratadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt vositalari ijodiy jarayonda inson tomonidan aniq topshiriqlar va kreativ boshqaruv bilan yaratilgan bo'lsa, mualliflik huquqi ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Boshqa tomondan, agar sun'iy intellekt asar yaratilishida insonning ijodiy roli minimal yoki yo'q bo'lsa, u holda an'anaviy huquq tizimi bu asarni mualliflik huquqi bilan himoya qilmaydi. Bu hol hozirda ko'plab yurisdiksiyalarda qabul qilingan prinsipdir:

- AQShda federal apellyatsiya sudi sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarni "inson muallifi" bo'lmaganligi uchun copyright bilan himoya qilmaydi².
- AQSh Mualliflik Boshqarmasi (U.S. Copyright Office) ham faqat inson boshqaruvi bilan yaratilgan elementlarga huquq beradi, to'liq AI yaratganlarga emas³. Shuning uchun sun'iy intellektni muallif bo'lishi mumkin emas degan asosiy qoida ko'pchilik an'anaviy qonunchilikda amal qiladi.

Huquqiy yondashuvlar va farqlar

1. AQSh tizimi. AQShda huquqiy talab aniq: ijodiy asar bo'lishi uchun «inson muallifi» bo'lishi zarur⁴. Unga ko'ra, to'liq sun'iy intellekt orqali yaratilgan bo'lsa, mualliflik himoyasi berilmaydi.

2. Ispaniya va Germaniya. Faqat inson tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi mumkinligi ta'kidlangan⁵.

3. Buyuk Britaniya. Ba'zan sun'iy intellekt natijalari inson va sun'iy intellekt vositasining birgalikdagi ijodi bo'ladi. Bunga misollar sifatida sun'iy intellekt yordamida raqamli ravishda yaxshilangan fotosuratlar va sun'iy intellekt yordamchisining takliflari bilan yozilgan dasturiy ta'minotni keltirish mumkin. Bunday hollarda, inson yaratuvchisi muallif deb hisoblanadi⁶.

¹ <https://share.google/eHbRVSw3EOZLCTVwH>

² https://www.reuters.com/world/us/us-appeals-court-rejects-copyrights-ai-generated-art-lacking-human-creator-2025-03-18/?utm_source=chatgpt.com

³ https://www.reddit.com/r/MediaSynthesis/comments/1idse57/us_copyright_office_opinion_on_copyrightable_of/?utm_source=chatgpt.com

⁴ https://www.reuters.com/world/us/us-appeals-court-rejects-copyrights-ai-generated-art-lacking-human-creator-2025-03-18/?utm_source=chatgpt.com

⁵ <https://www.wipo.int/en/web/wipo-magazine/articles/artificial-intelligence-and-copyright-40141>

⁶ <https://www.gov.uk/government/consultations/copyright-and-artificial-intelligence/copyright-and-artificial-intelligence#bcopyright-and-artificial-intelligence>

4. Yevropa Ittifoqi. Genai ishlanmalarini Yevropa Ittifoqi mualliflik huquqi qonuni nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishni taklif etadi, texnik, huquqiy va iqtisodiy jihatlarni qamrab oladi⁷.

Sun'iy intellekt asarlari yuzasidan huquqiy bo'shliqlar

Amalda quyidagi muammolar mavjud:

1. Muallif subyekti yo'qligi;
2. Mulkiy huquqlar egasini aniqlash qiyinligi;
3. Javobgarlik masalasining ochiq qolishi.

Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda sui generis huquqiy rejim joriy etish taklif etilmoqda, ya'ni sun'iy intellekt orqali yaratilgan asarlar uchun yaratilgan huquqiy mexanizm yaratish zarurligi ta'kidlanadi.

Amaliyotdagi muammolar:

1. Mualliflik subyekti muammosi. Amaliyotda eng katta muammo - "kim muallif?" degan savolga javob topilmasligidir. Sun'iy intellekt muallif bo'la olmaydi, inson esa ko'pincha ijodiy jarayonda yetarli darajada ishtirok etmagan bo'ladi. Natijada asar huquqiy muhofazadan chetda qoladi.

2. Mulkiy huquqlarni taqsimlashdagi noaniqlik. Sun'iy intellekt orqali yaratilgan asardan iqtisodiy foyda olinayotgan bo'lsa-da, bu foyda kimga tegishli ekanligi masalasi ochiq qolmoqda. Dastur ishlab chiquvchi, foydalanuvchi yoki platforma egasi o'rtasida huquqiy nizolar kelib chiqishi ehtimoli yuqori.

3. Javobgarlik masalasi. Agar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asar boshqa shaxslarning huquqlarini buzsa (masalan, plagiat yoki haqoratli kontent), javobgarlik kim zimmasiga yuklanishi masalasi amaliyotda jiddiy muammoga aylanmoqda.

4. Sud amaliyotida bir xil yondashuv yo'qligi. Turli davlatlar va hatto bir davlat doirasida ham sudlar sun'iy intellekt asarlariga nisbatan turlicha qarorlar chiqarmoqda. Bu esa huquqiy barqarorlik va oldindan bashorat qilish imkoniyatini kamaytiradi.

Takliflar:

1. Inson ishtirokidagi sun'iy intellekt asarlarini huquqiy jihatdan aniqlashtirish zarur. Agar asar yaratishda inson ijodiy qarorlar qabul qilgan, mazmuni shakllantirgan yoki yakuniy natijani tahrir qilgan bo'lsa, bunday holatlarda mualliflik huquqi inson foydasiga tan olinishi qonunchilik darajasida aniq mustahkamlanishi lozim. Bu nafaqat ijodkorlarning huquqlarini himoya qiladi, balki sun'iy intellektni ijodiy vosita sifatida qonuniy qo'llashni rag'batlantiradi.

2. To'liq avtomatlashtirilgan sun'iy intellekt asarlari uchun alohida (sui generis) huquqiy rejim joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday rejim mualliflik huquqidan farqli bo'lib, asarning iqtisodiy qiymatini himoya qilishga qaratilgan cheklangan muddatli va hajmli huquqlarni nazarda tutishi mumkin. Ushbu yondashuv innovatsiyalarni to'xtatmasdan, bir vaqtning o'zida huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

⁷ <https://www.euipo.europa.eu/en/news/euipo-releases-study-on-generative-artificial-intelligence-and-copyright>

3. Sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida shaffoflik talablarini joriy etish zarur. Asar yaratishda sun'iy intellektdan foydalanilganligi majburiy tarzda ko'rsatilishi, inson ishtirokining darajasi hujjatlashtirilishi lozim. Bu amaliyot mualliflik nizolarini kamaytirish, sudlar va ekspertlar uchun baholash jarayonini soddalashtirishga xizmat qiladi.

4. Javobgarlik mexanizmlarini aniqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Agar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontent uchinchi shaxslarning huquqlarini buzsa, javobgarlik qaysi subyekt zimmasiga yuklanishi (foydalanuvchi, dastur egasi yoki platforma operatori) qonunchilikda aniq belgilanishi kerak. Bu huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklarni kamaytiradi.

5. Sun'iy intellekt treningi uchun foydalaniladigan ma'lumotlarning huquqiy rejimini takomillashtirish zarur. Mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan sun'iy intellektni o'qitishda foydalanish aniq shartlar asosida, adolatli foydalanish yoki litsenziyalash mexanizmlari orqali tartibga solinishi lozim. Bu ijodkorlar manfaatlari va texnologik rivoj o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

6. Sudlar va huquqni qo'llovchi organlar uchun maxsus metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Sun'iy intellekt ishtirokidagi ijod mahsulotlarini baholash bo'yicha yagona yondashuvlarning yo'qligi turli qarorlar chiqishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ekspertiza mezonlari va baholash standartlarini belgilash zarur.

7. Milliy qonunchilikni xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Sun'iy intellekt global hodisa bo'lgani sababli, bir davlat doirasidagi yondashuv yetarli bo'lmaydi. Xalqaro standartlarga moslashgan, lekin milliy manfaatlarni hisobga olgan normativ mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qiladigan bo'lsak, sun'iy intellekt orqali yaratilgan ijod namunalari huquqiy maqomi masalasi zamonaviy mualliflik huquqi tizimi oldida turgan eng murakkab va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, amaldagi mualliflik huquqi konsepsiyasi inson ijodiy faoliyatiga asoslangan bo'lib, sun'iy intellektning mustaqil ijodiy natijalari ushbu tizim doirasida yetarli darajada qamrab olinmayapti. Bu holat huquqiy bo'shliqlar, noaniqliklar va amaliyotda nizolar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, sun'iy intellekt orqali yaratilgan asarlarda mualliflik subyektining aniqlanmasligi, mulkiy huquqlarning kimga tegishli ekanligini belgilashdagi murakkabliklar hamda huquqbuzarliklar yuzaga kelganda javobgarlik masalasining ochiq qolishi amaliyotda eng ko'p uchrayotgan muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, inson ishtiroki darajasini baholash bo'yicha aniq mezonlarning yo'qligi sud va huquqni qo'llovchi organlar faoliyatida turlicha yondashuvlarga olib kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun taklif etilgan huquqiy yechimlar mualliflik huquqi tizimini sun'iy intellekt texnologiyalariga moslashtirishga qaratilgan. Inson ishtirokida yaratilgan sun'iy intellekt asarlariga nisbatan mualliflik huquqini tan

olish, to'liq avtomatlashtirilgan asarlar uchun esa alohida, cheklangan va maxsus huquqiy rejim joriy etish huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanish shaffofligini oshirish, javobgarlik mexanizmlarini aniqlashtirish va trening ma'lumotlarining huquqiy rejimini tartibga solish innovatsion rivoj va ijodkorlar manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://share.google/eHbRVSw3EOZLCTVwH>
2. https://www.reuters.com/world/us/us-appeals-court-rejects-copyrights-ai-generated-art-lacking-human-creator-2025-03-18/?utm_source=chatgpt.com
3. https://www.reddit.com/r/MediaSynthesis/comments/1idse57/us_copyright_office_opinion_on_copyrightable_of/?utm_source=chatgpt.com
4. https://www.reuters.com/world/us/us-appeals-court-rejects-copyrights-ai-generated-art-lacking-human-creator-2025-03-18/?utm_source=chatgpt.com
5. <https://www.wipo.int/en/web/wipo-magazine/articles/artificial-intelligence-and-copyright-40141>
6. <https://www.gov.uk/government/consultations/copyright-and-artificial-intelligence/copyright-and-artificial-intelligence#bcopyright-and-artificial-intelligence>
7. <https://www.euipo.europa.eu/en/news/euipo-releases-study-on-generative-artificial-intelligence-and-copyright>